

UDK: 616-052:614.253.4:613/614

O'RTA TIBBIYOT XODIMLARI ISH FAOLIYATIDA YUQUMSIZ KASALLIKLARNI PARVARISHLASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Shomansurova E.A., Tokhtaeva D.M.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti (O'zbekiston Respublikasi)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yuqumsiz kasalliklar (YuKK) bilan og'rgan bemorlarga o'rta tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan parvarish xizmatining zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar va xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida patronaj va hamshiralik xizmatlarini takomillashtirish uchun zamonaviy yondashuvlarni aniqlashdir. Maqolada ilmiy-nazariy tahlil, amaliy kuzatuvlar hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yuqumsiz kasalliklar, hamshiralik ishi, parvarish, profilaktika, zamonaviy yondashuvlar, patronaj, tibbiyot xodimlari.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы современные направления, инновационные методы и международный опыт сестринского ухода за пациентами с неинфекционными заболеваниями (НИЗ), осуществляемого средним медицинским персоналом.

Цель исследования — определить современные подходы к совершенствованию патронажной и сестринской деятельности при уходе за пациентами с НИЗ в Узбекистане.

В статье представлены научно-теоретический анализ, результаты практических наблюдений и научные рекомендации.

Ключевые слова: неинфекционные заболевания, сестринское дело, уход, профилактика, современные подходы, патронаж, медицинские работники.

ABSTRACT

This article analyzes modern directions, innovative methods, and international experiences in nursing care provided by mid-level medical personnel for patients with noncommunicable diseases (NCDs).

The aim of the study is to identify modern approaches to improving patronage and nursing services for patients with NCDs in Uzbekistan.

The paper presents a scientific and theoretical analysis, practical findings, and evidence-based recommendations for enhancing the quality of nursing care.

Keywords: noncommunicable diseases, nursing, patient care, prevention, modern approaches, patronage, medical personnel.

Kirish

XXI asrda dunyo sog'liqni saqlash tizimi duch kelayotgan eng dolzarb muammolardan biri — yuqumsiz kasalliklarning (YuKK) keskin ortib borayotganidir [1]. Yurak-qon tomir, diabet, onkologik va surunkali nafas olish tizimi kasalliklari inson o'limining asosiy sababiga aylanib bormoqda. Shu sababli, birlamchi tibbiy

xizmat tizimida o'rta tibbiyot xodimlarining roli bemorlarni parvarishlash, ularning hayot sifatini yaxshilash va kasalliklarning oldini olishda beqiyos ahamiyat kasb etadi [2]. Aholi orasida stress, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning kamayishi va atrof-muhit omillarining kuchayishi YuKK tarqalishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi [3]. Shu

boisdan, zamonaviy hamshiralik faoliyatida ilmiy asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan va innovatsion parvarish usullarini joriy etish zarurati ortib bormoqda [4].

Tadqiqot usullari

Tadqiqotda deskriptiv tahlil, ilmiy va uslubiy manbalarni o'rganish, amaliy kuzatuv hamda sotsiologik so'rovnoma usullari qo'llanildi [5]. Ma'lumotlar 2024–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining birlamchi tibbiy xizmat muassasalarida o'tkazilgan kuzatuvlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda 60 nafar o'rta tibbiyot xodimi va 120 nafar YuKK bilan og'rgan bemor ishtirok etdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, hamshiralari quyidagi muammolarni ta'kidladilar:

- ish yuklamasining yuqoriligi;
- zamonaviy parvarish protokollarining yetishmasligi;
- doimiy malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi [6].

Natijalar va muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, YuKK bilan og'rgan bemorlarni parvarishlashda hamshiralik faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega [7]:

1. Innovatsion parvarish texnologiyalari:
 - raqamli sog'liqni saqlash tizimlari (qon bosimi, glyukoza darajasi, yurak faoliyatini kuzatish uchun mobil ilovalar) [8];
 - “telemeditsina” va “onlayn maslahat” xizmatlarini kengaytirish [9];
 - elektron parvarish kartalarini yuritish [10].
2. Hamshiralik protokollari va standartlari:
 - YuKK bo'yicha xalqaro (WHO, ICN) talablarga mos milliy protokollar ishlab chiqish [11];
 - parvarishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish [12].
3. Profilaktik yo'nalish:
 - bemorlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish;
 - to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikni rag'batlantirish;
 - sog'lomlik maktablari orqali aholiga doimiy ma'rifiy ishlar olib borish [13].
4. Kadrlar salohiyatini oshirish:

- zamonaviy treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish [14];
- xalqaro hamshiralik tajribalarini milliy amaliyotga tatbiq etish [15].

Hamshiralik faoliyatida innovatsion yondashuvlar faqat texnik yoki texnologik o'zgarishlarni emas, balki insonparvarlik, axloqiy va madaniy qadriyatlar asosida shakllanadigan yangi kasbiy madaniyatni ham talab etadi [16]. Zamonaviy parvarish markazida — bemorning shaxsiy ehtiyojlarini anglash, psixologik qo'llab-quvvatlash va empatik muloqot turadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, YuKK bilan ishlovchi hamshiralari nafaqat davolash jarayonida, balki bemorning ijtimoiy, ruhiy va hayotiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashda ham muhim rol o'ynaydi [17]. Jahon amaliyotida, xususan Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreyada, hamshiralari YuKK profilaktikasida mustaqil maslahatchi sifatida faoliyat yuritadilar [18]. Ushbu ilg'or tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy tibbiyotning asosiy tamoyillaridan biri — xavf omillarini chuqur o'rganish va ularni boshqarishdir. Bu yondashuv profilaktika va individual prognozlarni ilmiy asosda shakllantirish imkonini beradi. Kasallik rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar xavf omillari yoki prognoz belgilari sifatida ko'riladi [19]. Profilaktika sohasi mutaxassislari — A.A. Aleksandrov, V.B. Rozanov (2005), R.G. Oganov (2014), S.A. Shalnova (2011), A.A. Buganov (2012) va boshqalar ta'kidlaganidek, xavf omillarini boshqarish sog'lomlikni saqlashning asosiy konsepsiyasidir. Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining pediatriya ilmiy-tadqiqot institutida bolalarda yuqumsiz kasalliklarning shakllanishiga sabab bo'luvchi omillar bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazilgan. Ularning natijalari patologiya rivojlanishiga eng kuchli ta'sir etuvchi ijtimoiy-biologik omillarni aniqlash imkonini bergan [20]. Aniqlangan omillar quyidagicha tasniflangan: og'ir irsiyat, homiladorlik va tug'ruqdagi asoratlar, ota-onalarning zararli ishlab chiqarish omillariga duchor bo'lishi, sun'iy yoki aralash oziqlantirishga erta o'tish,

ota-onalarning alkogolizmi, to'liq bo'lmagan oila, homiladorlik davrida onaning chekishi, oilada va maktabda noqulay psixologik muhit shular jumlasidandir. Bir qator tadqiqotchilar ushbu omillar kelajakda surunkali kasalliklar rivojlanishida muhim rol o'ynashini qayd etganlar [21]. Shu bilan birga, bolalar va kattalar populyatsiyasida ushbu omillarning ta'sir kuchi farqlanadi: bolalarda perinatal davrga oid omillar, avtonom nerv tizimi regulatsiyasining o'ziga xosligi va biriktiruvchi to'qima displaziyasi ko'proq ahamiyat kasb etadi [22]. Ko'plab tadqiqotlar bolalik davrida surunkali kasalliklarning asosiy xavf omillari shakllanib, sog'lomlikka uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini isbotlagan [23]. Shu sababli bolalarga ambulator yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash tizimida eng muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Bunda tibbiy xizmat sifati, foydalanish imkoniyati va xavfsizligini oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda [24–25]. Buning uchun mavjud tibbiyot muassasalarining yuklamasini oshirmasdan, ularning funksional modelini va ish usullarini takomillashtirish talab etiladi [26]. Ayni paytda amaldagi pediatriya xizmati modeli resurslardan oqilona foydalanishni to'liq ta'minlamaydi. Vaqt o'tishi bilan bu modelning kamchiliklari bolalarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishda muammolarni keltirib chiqarmoqda [27]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi tibbiyot xodimlarining 59 foizini hamshiralar tashkil etadi. Ularning umumiy soni 27,9 millionni tashkil etsa, shundan 19,3 millioni professional hamshiralardir. Surunkali kasalliklar, jumladan buyrak yetishmovchiligi bilan yashovchi bolalar uchun maxsus onlayn o'quv kurslari va hamshiralik dasturlari ularni qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [28]. O'zbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish maqsadida keng tarmoqli ambulator-poliklinikalar tashkil etilgan. Ularning vazifasi — zamonaviy moddiy-texnik bazani mustahkamlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash va oilaviy tibbiyot tizimida hamshiralarning rolini kuchaytirishdir [29]. Surunkali kasalliklarning dastlabki bosqichlarida ularni aniqlash, bemorlarni

dinamik kuzatish va tor soha mutaxassislariga o'z vaqtida yo'naltirish — hamshiralar faoliyatining asosiy vazifalaridan biridir. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahar aholisi uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordam samaradorligini oshirish to'g'risida" 2017-yil 6-iyundagi PQ–3039-sonli qarorida ham belgilab o'tilgan [30]. Shunga qaramay, amaliyotda surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni terapevtik o'qitish va parvarish qilishda dalillarga asoslangan hamshiralik modellarning yo'qligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. Bolalar o'rtasida surunkali kasalliklarning ortib borishi shaxsiy hayot tarzi, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik yetishmasligi va zararli odatlarga bog'liq omillar bilan izohlanadi. Shu sababli ushbu omillar o'zgartiriladigan xavf omillari sifatida tasniflanadi va shaxs xatti-harakatlariga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ularni xulq-atvor omillari deb atash mumkin. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri — aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, surunkali va yuqumsiz kasalliklarning (YuKK) erta profilaktikasini yo'lga qo'yish hamda ularni samarali nazorat qilishdir. Ushbu jarayonda o'rta tibbiyot xodimlari bevosita ishtirok etib, bemorlarni parvarishlash, kuzatish, maslahat berish, rehabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirish orqali muhim o'rin egallaydi.

Zamonaviy hamshiralik faoliyatining samaradorligi ularning kasbiy kompetensiyasiga, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasiga va bemorga individual yondasha olish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir. YuKK bilan kasallangan bemorlarga xizmat ko'rsatishda erta tashxis qo'yish, shaxsga yo'naltirilgan parvarish, zamonaviy diagnostika usullari va parvarish texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta tibbiyot xodimlari bugungi kunda o'z amaliyotida raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Elektron tibbiy kartalar, telemeditsina platformalari, sog'liq monitoringi uchun mobil ilovalar hamda simulyatsion o'quv dasturlari ularning ishini yengillashtirib, parvarish sifatini

oshirmoqda. Shuningdek, YuKK bilan og‘rigan bemorlarni parvarishlashda multidisiplinar yondashuv – ya’ni shifokor, hamshira, psixolog va ijtimoiy xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati – muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv nafaqat bemorning jismoniy sog‘lig‘ini tiklash, balki uning ruhiy holati va ijtimoiy muhitga moslashuvini ham yaxshilaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘rta tibbiyot xodimlarining zamonaviy yondashuvlardan foydalanishi YuKK profilaktikasi samaradorligini oshiradi, bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi va ularni sog‘lom turmush tarziga qayta yo‘naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ularning kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirishni, malaka va ko‘nikmalarni yangilab borishni talab qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o‘rta tibbiyot xodimlarining YuKK bilan og‘rigan bemorlarni parvarishlashdagi zamonaviy yondashuvlari sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Hamshiralik amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muntazam takomillashtirib borish, bemorlarga individual yondashuvni kuchaytirish va profilaktik tadbirlarni

kengaytirish YuKK bilan bog‘liq o‘lim va nogironlik holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo‘nalishda quyidagi tavsiyalar muhim deb hisoblanadi:

1. O‘rta tibbiyot xodimlari YuKK bilan og‘rigan bemorlarni parvarishlashda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan faol foydalanishi lozim.
2. Milliy miqyosda hamshiralik xizmatining zamonaviy standartlarini yangilash va amaliyotga joriy etish zarur.
3. Hamshiralalar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirish tizimini kuchaytirish kerak.
4. Axborot texnologiyalariga asoslangan teleparvarish va masofaviy monitoring xizmatlarini kengaytirish muhimdir.
5. Yuqumsiz kasalliklar profilaktikasini kuchaytirish orqali aholining sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashda hamshiralik xizmatining o‘rni yanada ortadi.

Umuman olganda, o‘rta tibbiyot xodimlarining zamonaviy yondashuvlarga asoslangan parvarish faoliyati nafaqat bemorlarning sog‘lig‘ini yaxshilash, balki jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Health Organization. *Noncommunicable Diseases Progress Monitor 2023*. Geneva: WHO; 2023.
2. World Health Organization. *Global Strategy on Human Resources for Health: Workforce 2030*. Geneva; 2022.
3. GBD 2020 Risk Factors Collaborators. *Global burden of 87 risk factors in 204 countries and territories, 1990–2020*. The Lancet. 2021;398(10294):1223–1249.
4. International Council of Nurses (ICN). *Nursing’s role in NCD prevention and management*. Geneva; 2021.
5. Polit D.F., Beck C.T. *Nursing Research: Generating and Assessing Evidence for Nursing Practice*. 11th ed. Wolters Kluwer; 2022.
6. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги. *Бирламчи тиббий хизмат тизимида ҳамширалик фаолиятини такомиллаштириш дастури 2024–2028 йиллар учун*. Тошкент, 2024.
7. Anderson L., et al. *Innovations in nursing care for chronic diseases*. Journal of Advanced Nursing. 2020;76(7):1602–1611.
8. Park E., et al. *Digital health technologies for chronic disease management*. JMIR Nursing. 2021;4(2):e25678.
9. Bashshur R., Shannon G. *Telemedicine: Theory and Practice*. Springer; 2020.

10. Nguyen H., et al. *Electronic nursing documentation: challenges and benefits*. Nursing Informatics Today. 2022;27(3):45–50.
11. World Health Organization. *WHO guidelines on integrated care for people with chronic conditions*. Geneva; 2022.
12. McCormack B., McCance T. *Person-Centred Nursing: Theory and Practice*. Wiley-Blackwell; 2017.
13. Ministry of Health of Uzbekistan. *Sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha milliy dastur*. Toshkent, 2023.
14. ICN Education Network. *Continuous professional development in nursing*. 2022.
15. Lee J., Kim S. *International comparison of nursing competencies for NCD management*. Asian Nursing Research. 2021;15(1):23–30.
16. Watson J. *Nursing: The Philosophy and Science of Caring*. University Press of Colorado; 2021.
17. NHS England. *Nursing roles in NCD prevention: UK case studies*. London; 2020.
18. Kim H.J., Park S.Y. *Community-based nursing interventions for NCD prevention in South Korea*. Public Health Nursing. 2022;39(5):987–996.
19. Studenikin M.Ya, A. A. Efimova, 2018.
20. М. М. brzezovskiy, 2005-2008; М. ya. Studenikin, A. A. Efimova, 2018). 1. Ю. И. Сунцов, 2005; В. А. Петеркова с соавт., 2005; Т. Ю. Ширяева с соавт., 2009
21. Гуркин Ю. А., 2008; Амбросимова, М. Ю., 2013; Меншикова Л. И., 2013; ва бошқалар. 2005.
22. Меншикова. Л. И., 2013
23. Бюкова И. С., 2011; Оганов Р. Ж., 2014; Александров А. А., ва бошқалар 2015.
24. Бучан Ж., 2002; Рябчикова Т. В., Эгорова Ж. И. А., Данилова А. Б., Качанова Л. А., Ласкарева Л. Н., 2009; Сквирская Г. П., 2013; Хусаэнова А. А., Насретдинова Л. М., Богданов Р. Р., 2016.
25. Козодой Ю. В., Смирнов М. С., Хаткевич М. И., 2014.
26. Стародубов В. И., Калининская А. А., Шляфер С. И., 2007; Андреева И. Л., 2010; Артемева Г. Б., 2014.
27. Денисов И. Н., 2010; Шевский В. И. ва бошқалар, 2013.
28. Назарова С. К. Совершенствование сестринского ухода за больными с сахарным диабетом на амбулаторнополиклиническом уровне. Тухтаева Д. М. Научный журнал “Интернаука” № 19(195), часть 1, 2021 г. Стр 72-73,
29. www.minzdrav.uz - Официальный сайт Министерства здравоохранения Республики Узбекистан
30. Постановление Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления и повышению профессиональной ответственности руководителей и специалистов за эффективность оказания первичной медико-санитарной помощи населению города Ташкента” № ПП-3039 от 6 июня 2017.